



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# 2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
III-qism*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	12
<b>Soliyev Damirjon Nurmatovich</b>	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI) .....	18
<b>Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi</b>	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI .....	26
<b>Xatamov Ochildi Qurbonovich</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ .....	32
<b>PhD. Юлдашева С.Ш</b>	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH .....	38
<b>Haydarova Dinora Atamurot qizi</b>	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ .....	43
<b>Гоженко Борис Владимирович</b>	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH .....	50
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI .....	55
<b>Fazilat Esirgapovna Jomonqulova</b>	
<b>Nizomov Murod</b>	
<b>Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi</b>	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE .....	58
<b>Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev</b>	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH .....	62
<b>R.I.Rashidov</b>	
<b>A.N. Elmurodov</b>	
<b>A.A. Muhiddinov</b>	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS .....	68
<b>Bokhodirov Boriykhon Boburovich</b>	
<b>Bahromjon Urmanov</b>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH .....	74
<b>Ergashova Nilufar Sobirovna</b>	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR .....	80
<b>Azizov Shohsuvor Yuldashevich</b>	
VERTIKAL INTEGRATSİYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI .....	84
<b>Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich</b>	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI.....	90
<b>Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich</b>	
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR .....	94
<b>Pardayeva Ozoda Mamayunusovna</b>	
СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА .....	100
<b>Маърупова Дилсора Абдулла кизи</b>	
O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL SHART-SHAROITLARI.....	105
<b>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</b>	
АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ .....	113
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
<b>Рахматуллаев Алижон</b>	
<b>Сайфитдинов Азизжон</b>	
G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA).....	119
<b>Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ .....	127
<b>Джусупов Кубанычбек</b>	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	133
<b>Umidjon Kostayev</b>	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS .....	140
<b>Saidova Dilfuza Ergashovna</b>	
AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH .....	145
<b>Muydinov Erkin Jamaldinovich</b>	
THE ROLE OF E-COMMERCE IN ECONOMIC DEVELOPMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN'S DIGITAL TRANSFORMATION.....	152
<b>Shakhriddinova Sitora Tolibjon kizi</b>	
THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN.....	157
<b>Yorkin Ziyodullaev</b>	
<b>Munisa Bekmirzaeva</b>	
РОЛЬ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ЗЕЛЕНОМ РОСТЕ В УЗБЕКИСТАНА.....	166
<b>Мохамед Эйд Али Балбаа</b>	
<b>Усманова Азиза Алишеровна</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI.....	173
<b>Shakirxodjaeva Zuxraxon Rustamxanovna</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTLARINI TUZISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	180
<b>Menglikulov Baxtiyor Yusupovich</b>	



THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN .....	184
<b>Yorkin Ziyodullaev</b> <b>Munisa Bekmirzaeva</b>	
TASTE OF PLACE: HOW LOCAL-INGREDIENT SOURCING AFFECTS GUEST SATISFACTION AND MENU PROFITABILITY IN HOTEL RESTAURANTS .....	193
<b>Bahodirova Durdona</b> <b>Atametova Sevara</b>	
INTERACTIONS IN CREATIVE TOURISM: RESIDENTS' PERSPECTIVES IN UZBEKISTAN.....	198
<b>Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna</b> <b>Jasmin Raxmidinova</b>	
XO'JALIK YURITUVCHISUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI .....	204
<b>Bauyetdinov M.J.</b>	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MINTAQA TABIIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) .....	212
<b>Safarov Otabek Abduhamidovich</b>	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY JIHATLARI.....	218
<b>O'rinov Akmaljon Axmadjonovich</b>	
ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	223
<b>Убайдуллаева Мафтунахон Акмалхон кизи</b>	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGI TAHLILI .....	230
<b>Xatamova Manzura Ochildiyevna</b>	
TURISTIK MAHSULOT MARKETINGI: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	240
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
IN VITRO TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KARTOSHKKA URUG'CHILIGI ZANJIRI SAMARADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	244
<b>Mardonova Zarifa Numonjonovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURSLAR YETARLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI .....	251
<b>Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li</b>	



# TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURSLAR YETARLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li  
TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: o.sheraliyev@brb.uz  
ORCID: 0009-0004-4513-6988

**ANNOTATSIYA.** Tijorat banklarida kredit operatsiyalari samaradorligini oshirish uchun resurslar yetariligi ta'minlash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida bank sektorining kapital yetariligi, likvidligi, daromadligi va moliyaviy resurs bazasi holati tahlil qilingan. Xususan, banklarning regulyativ kapitali, kapital yetariligi koeffitsientlari, yuqori likvid aktivlari, likvidlik ko'rsatkichlari hamda rentabellik indikatorlarining dinamikasi baholangan.

Tahlil natijalari bank sektorida kredit operatsiyalarini kengaytirish va iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish uchun yetarli moliyaviy salohiyat shakllanganligini ko'rsatdi. Banklar kapital bazasining mustahkamlanishi, likvidlik ko'rsatkichlarining xalqaro me'yoriy talablardan yuqori darajada shakllanishi hamda rentabellik ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi kredit operatsiyalarini samarali amalga oshirishning muhim omillari ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, kredit operatsiyalari samaradorligini yanada oshirish maqsadida depozit bazasini kengaytirish, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, kapitalizatsiya darajasini oshirish va resurslarni boshqarish samaradorligini kuchaytirish zarurligi asoslab berildi.

Olingan natijalar tijorat banklarida kredit operatsiyalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda kreditlash faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, kredit operatsiyalari, resurs bazasi, kapital yetariligi, likvidlik, bank aktivlari, kreditlash, moliyaviy barqarorlik, bank rentabelligi, depozitlar.

**ABSTRACT.** Issues related to ensuring resource adequacy for improving the efficiency of credit operations in commercial banks are examined. The study analyzes the banking sector's capital adequacy, liquidity, profitability, and financial resource base using statistical data provided by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Particular attention is paid to the dynamics of regulatory capital, capital adequacy ratios, highly liquid assets, liquidity indicators, and profitability measures.

The findings demonstrate that the banking sector has developed sufficient financial capacity to expand credit operations and support financing of the real sector of the economy. Strengthening banks' capital base, maintaining liquidity indicators above international regulatory requirements, and ensuring positive profitability dynamics were identified as key factors contributing to the effective implementation of credit operations. In addition, the need to expand the deposit base, diversify long-term funding sources, increase capitalization levels, and improve resource management efficiency is substantiated as a prerequisite for further enhancing credit operation performance.

The results may contribute to expanding financing opportunities for credit operations in commercial banks, strengthening financial stability, and improving the overall efficiency of lending activities.

**Keywords:** commercial banks, credit operations, resource base, capital adequacy, liquidity, bank assets, lending, financial stability, bank profitability, deposits.

**АННОТАЦИЯ.** Исследованы вопросы обеспечения достаточности ресурсов для повышения эффективности кредитных операций коммерческих банков. На основе статистических данных Центрального банка Республики Узбекистан проведён анализ достаточности капитала, ликвидности, доходности и состояния ресурсной базы банковского сектора. Особое внимание уделено динамике регулятивного капитала, коэффициентов достаточности капитала, объёма высоколиквидных активов, показателей ликвидности и рентабельности.

Результаты исследования показали, что в банковском секторе сформирован достаточный финансовый потенциал для расширения кредитных операций и финансирования реального сектора экономики.



Установлено, что укрепление капитальной базы банков, поддержание показателей ликвидности на уровне, превышающем международные нормативные требования, а также положительная динамика показателей рентабельности выступают важными факторами эффективной реализации кредитных операций. Одновременно обоснована необходимость расширения депозитной базы, диверсификации долгосрочных источников финансирования, повышения уровня капитализации и совершенствования управления ресурсами в целях дальнейшего повышения эффективности кредитной деятельности.

Полученные результаты могут способствовать расширению возможностей финансирования кредитных операций коммерческих банков, укреплению их финансовой устойчивости и повышению эффективности кредитной деятельности.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, кредитные операции, ресурсная база, достаточность капитала, ликвидность, банковские активы, кредитование, финансовая устойчивость, рентабельность банков, депозиты.

## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda tijorat banklari muhim o'rin egallaydi. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, kredit operatsiyalarining samaradorligi nafaqat alohida banklarning moliyaviy natijalariga, balki iqtisodiyotning investitsion faolligi, ishlab chiqarish hajmlari va tadbirkorlik muhitining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank-moliya tizimini isloh qilish, banklar faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etish hamda kreditlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bank sektorida raqobat muhitini kuchaytirish, kredit risklarini samarali boshqarish, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish va kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarini faol kreditlash jarayonida kredit portfelining tez sur'atlarda o'sishi banklar oldiga kredit risklarini samarali boshqarish, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur baholash hamda kredit mablag'larining qaytarilishini ta'minlash bilan bog'liq yangi talablarni qo'yimoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish nafaqat kredit hajmlarini ko'paytirishni, balki kredit portfeli sifatini yaxshilashni, muammoli kreditlarni kamaytirishni hamda kredit qarorlarini qabul qilishda zamonaviy risk-menejment vositalaridan foydalanishni ham talab etadi.

Xalqaro amaliyotda kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida kredit skoring tizimlari, logistik regressiya modellari, stress-testlash mexanizmlari, kredit risklarini erta aniqlash tizimlari (Early Warning System) hamda qarz oluvchilarning moliyaviy va operatsion faoliyatini kompleks baholash usullari keng qo'llanilmoqda. Bunday yondashuvlar kredit risklarini oldindan aniqlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston tijorat banklarida kredit operatsiyalarini samarali tashkil etish va kredit risklarini boshqarish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay, kredit operatsiyalarining samaradorligini baholash va uni oshirishning zamonaviy mexanizmlarini qo'llash masalalari ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida kredit operatsiyalarining samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, kredit operatsiyalari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit operatsiyalari faoliyati tanlangan. Tadqiqot predmeti esa kredit operatsiyalarining samaradorligini baholash va oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining kredit operatsiyalari iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarining hajmi va samaradorligi, avvalo, banklarning resurs bazasi, kapital yetariligi va likvidlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, banklarda kredit operatsiyalarini rivojlantirish uchun yetarli moliyaviy resurslarni shakllantirish masalalari iqtisodchi olimlar va xalqaro moliya institutlari tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda.

Bank faoliyatining nazariy asoslarini tadqiq etgan Mishkin (2022) moliyaviy vositachilik tizimida banklarning asosiy vazifasi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini iqtisodiyotning resurslarga ehtiyoj sezayotgan subyektlariga



samarali yo'naltirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, kreditlash hajmlarining barqaror o'sishi banklarning yetarli resurs bazasiga ega bo'lishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashi bilan bevosita bog'liqdir.

Rose va Hudgins (2021) bank faoliyatining samaradorligini ta'minlashda kapital, depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'larning o'rni alohida ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Ularning fikricha, kredit operatsiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi banklar tomonidan resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq bo'lib, banklarning moliyaviy natijalari ham aynan shu omillar ta'sirida shakllanadi.

Bank tizimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik King va Levine (1993) tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, tadqiqot natijalari moliyaviy vositachilikning rivojlanishi investitsion faollik va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishini ko'rsatgan. Keyinchalik Beck, Levine va Loayza (2000) moliyaviy tizimning rivojlanishi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va kapital jamg'arilishini jadallashtirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Bank sektorining barqaror rivojlanishida kapital yetariligi alohida o'rin egallaydi. Saunders va Cornett (2021) banklarning kreditlash salohiyati ko'p jihatdan ularning kapital bazasi va risklarni qoplash imkoniyatlariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Mualliflarning fikricha, kapital yetariligi banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, kredit portfelini kengaytirish uchun zarur moliyaviy asosni ham yaratadi.

Kapital yetariligi tartibga solish masalalari Bazel bank nazorati qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarda ham keng yoritilgan. Basel Committee on Banking Supervision (2019) banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital yetariligi va likvidlik ko'rsatkichlari asosiy ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Xususan, Bazel III standartlari banklarning kredit risklarini qoplash salohiyatini oshirish va moliyaviy inqirozlar davrida barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan.

Likvidlikni boshqarish masalalari ham zamonaviy bank amaliyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF, 2023) va Jahon banki (World Bank, 2024) tadqiqotlarida banklarning kreditlash imkoniyatlari likvid aktivlar hajmi va barqaror moliyalashtirish manbalari bilan bevosita bog'liq ekanligi ta'kidlangan. Xususan, Likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) va Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) banklarning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini baholashning muhim vositalari sifatida e'tirof etiladi.

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda banklarning resurs bazasini mustahkamlashda depozitlarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Demirgüç-Kunt va boshqalar (2022) bank tizimining barqaror rivojlanishi aholining va biznes subyektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchi hamda depozit bazasining kengayishi bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Barqaror depozit bazasi kredit operatsiyalarini uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi va banklarning tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramligini kamaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy adabiyotlarda kredit operatsiyalarini moliyalashtirish uchun resurslar yetariligi, kapital yetariligi va likvidlikni boshqarish masalalari keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, O'zbekiston bank sektorida kredit operatsiyalarining samaradorligini resurs bazasi, kapitalizatsiya darajasi va likvidlik ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqlikda baholashga qaratilgan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Shu sababli, mazkur tadqiqot tijorat banklarida kredit operatsiyalari samaradorligini oshirish uchun resurslar yetariligi ta'minlash masalalarini kompleks tahlil qilish va ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari kredit operatsiyalarining samaradorligini baholash va uni oshirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida kredit operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati, ularning bank faoliyatidagi o'rni hamda samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari, tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon banki (World Bank), Bazel bank nazorati qo'mitasi (BCBS) hamda boshqa xalqaro moliya institutlarining tahliliy materiallari tashkil etdi. Shuningdek, kredit risklarini boshqarish va kredit operatsiyalarining samaradorligini baholashga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy asosini shakllantirdi.

Tadqiqot davomida kredit operatsiyalarining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida dinamik tahlil usulidan foydalanildi. Mazkur usul yordamida tijorat banklarining kredit portfeli hajmi, depozit bazasi, kapital yetariligi, aktivlar sifati hamda daromadlilik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar baholandi.

Banklar faoliyatining samaradorligini baholashda qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, bank tizimining turli davrlardagi ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi. Shu bilan birga, davlat ulushi mavjud banklar va xususiy banklar faoliyatining ayrim ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Kredit operatsiyalarining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni baholashda statistik va moliyaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, kredit portfelining o'sish sur'ati, muammoli kreditlar ulushi (NPL), kreditlarning



depozitlar bilan ta'minlanganlik darajasi (Loan-to-Deposit Ratio), aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE) va kapital yetarliligi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Mazkur ko'rsatkichlar kredit operatsiyalarining banklar moliyaviy barqarorligi va daromadlilikiga ta'sirini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida tizimli yondashuv usulidan foydalanildi. Ushbu yondashuv kredit operatsiyalarini bank faoliyatining boshqa yo'nalishlari bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish, kredit risklari, resurs bazasi va moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotning amaliy qismida xalqaro bank amaliyotida qo'llanilayotgan kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlari, jumladan, logistik regressiya asosidagi kredit skoring modellari, stress-testlash tizimlari, kredit risklarini erta aniqlash mexanizmlari (Early Warning System) hamda qarz oluvchilarning moliyaviy va operatsion samaradorligini baholashga asoslangan yondashuvlar o'rganildi va ularni O'zbekiston tijorat banklari amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Natijada, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tijorat banklarida kredit operatsiyalarining samaradorlik darajasini kompleks baholash, mavjud holatlarni aniqlash hamda ularni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida O'zbekiston bank sektorining moliyaviy barqarorligi, daromadlilik va likvidlik holati tahlil qilindi. Olingan natijalar bank tizimining so'nggi yillarda faol rivojlanayotganligini hamda kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy salohiyatning mustahkamlanib borayotganligini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval  
Bank sektorida o'z mablag'lari (kapitali) yetarliligi ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	01.05.2025	Ulushi, %	01.05.2026	Ulushi, %
1-darajali kapital	115 732	85,8	138 726	85,0
Asosiy kapital	115 590	85,7	134 579	82,4
Qo'shimcha kapital	256	0,19	4 149	2,54
1-darajali kapitaldan chegirmalar	115	0,09	2	0,00
2-darajali kapital	19 194	14,2	24 517	15,0
Jami regulyativ kapital	134 925	100	163 243	100
Kapital yetarliligi koeffitsienti, %	17,3	–	18,4	–
1-darajali kapital yetarliligi, %	14,8	–	15,7	–
Asosiy kapital yetarliligi, %	14,8	–	15,2	–

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025–2026-yillarda bank sektorining regulyativ kapitali 21,0 foizga oshib, 163,2 trln so'mga yetgan. Bu holat bank tizimining moliyaviy barqarorligi va kredit risklarini qoplash imkoniyatlari ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Avvalo, bank sektorining kapital yetarliligi ko'rsatkichlari tahlili bank tizimi moliyaviy barqarorligining sezilarli darajada oshganligini tasdiqlaydi. 2025-yil 1-may holatiga regulyativ kapital hajmi 134,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-may holatiga ushbu ko'rsatkich 163,2 trln so'mga yetib, 21,0 foizga o'sgan. Kapitalning asosiy qismini tashkil etuvchi 1-darajali kapital hajmi 115,7 trln so'mdan 138,7 trln so'mga oshgan. Bu esa banklarning kredit risklarini qoplash imkoniyatlari kengayayotganligini va kapital bazasi sifat jihatidan mustahkamlanayotganligini anglatadi.

Shuningdek, kapital yetarliligi koeffitsienti 17,3 foizdan 18,4 foizga, 1-darajali kapital yetarliligi esa 14,8 foizdan 15,7 foizga oshgan. Mazkur ko'rsatkichlarning Bazel qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan minimal me'yorlardan sezilarli darajada yuqori shakllanishi bank sektorining potensial yo'qotishlarni qoplash hamda kreditlash faoliyatini kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish uchun banklarda qo'shimcha kapital resurslari shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

Bank sektorining daromadlari va xarajatlari tarkibi tahlili ham ijobiy tendensiyalarni namoyon etdi. Xususan, foizli daromadlar hajmi 39,0 trln so'mdan 47,0 trln so'mga oshib, 20 foizdan ortiq o'sishni qayd etdi. Shu bilan birga, foiz marjasi 11,8 trln so'mdan 13,2 trln so'mga yetgan. Bu holat kredit operatsiyalari banklar daromadlarining asosiy manbai bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi (2-jadval).

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-jadval  
Bank sektorining daromadlari va xarajatlari (mlrd so'm)<sup>2</sup>

Ko'rsatkichlar	01.05.2025	01.05.2026
Foizli daromadlar	39 020	46 970
Foizli xarajatlar	27 217	33 789
Foiz marjasi	11 803	13 181
Foizsiz daromadlar	21 685	35 491
Foizsiz xarajatlar	7 158	10 661
Operatsion xarajatlar	8 495	10 826
Foizsiz sof daromad	6 032	14 004
Kredit va lizing bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar	9 817	14 188
Nokredit yo'qotishlar bahosi	2 755	5 053
Soliq to'lashdan oldingi sof foyda	5 263	7 944
Foyda solig'i xarajatlari	953	998
Sof foyda	4 309	6 946

2-jadval ma'lumotlari bank sektorining daromadlilik ko'rsatkichlari ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, sof foyda hajmi 2025-yildagi 4,3 trln so'mdan 2026-yilda 6,9 trln so'mga yetib, 61,2 foizga oshgan.

Bank sektorida foizsiz daromadlarning 21,7 trln so'mdan 35,5 trln so'mga oshishi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu tendensiya banklar faoliyatida raqamli xizmatlar, to'lov tizimlari va komission operatsiyalar ulushi ortib borayotganligini anglatadi. Natijada, sof foyda 4,3 trln so'mdan 6,9 trln so'mga yetib, qariyb 61 foizga oshgan. Bu esa banklar rentabelligi va operatsion samaradorligining yaxshilanayotganligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval  
Bank sektorining daromadlilik ko'rsatkichlari<sup>3</sup>

Ko'rsatkichlar	01.05.2025	01.05.2026
Aktivlar rentabelligi (ROA), %	2,0	2,5
Kapital rentabelligi (ROE), %	10,9	15,0
Sof foizli daromadning jami aktivlarga nisbati, %	4,3	4,2
Sof foizli daromadning kredit portfeliga nisbati, %	6,3	6,4
Sof foizli daromadning majburiyatlarga nisbati, %	5,0	4,9
Sof foiz marjasi, %	4,5	4,2

3-jadval natijalariga ko'ra, aktivlar rentabelligi (ROA) 2,0 foizdan 2,5 foizga, kapital rentabelligi (ROE) esa 10,9 foizdan 15,0 foizga oshgan. Bu banklar tomonidan mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganligini anglatadi.

Bank sektorining daromadlilik ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etdi. Aktivlar rentabelligi (ROA) 2,0 foizdan 2,5 foizga oshgan bo'lsa, kapital rentabelligi (ROE) 10,9 foizdan 15,0 foizga yetgan. Mazkur natijalar banklar tomonidan mavjud aktivlar va kapital resurslaridan foydalanish samaradorligi ortib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sof foiz marjasining 4,5 foizdan 4,2 foizga o'zgarishi banklar o'rtasidagi raqobat muhiti rivojlanib borayotganligi hamda resurslarni jalb qilish jarayonlari faollashayotganligi bilan izohlanishi mumkin.

Tahlillar davomida bank sektorining likvidlik holati ham o'rganildi. Natijalarga ko'ra, yuqori likvid aktivlar hajmi 150,6 trln so'mdan 194,4 trln so'mga oshgan. Yuqori likvid aktivlarning jami aktivlardagi ulushi esa 18,2 foizdan 20,8 foizga yetgan. Bu banklarning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish imkoniyatlari mustahkamlanayotganligini ko'rsatadi (4-jadval)

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4-jadval  
Bank sektorining likvidlik ko'rsatkichlari<sup>4</sup>

Ko'rsatkichlar	01.05.2025	01.05.2026
Yuqori likvid aktivlar, mlrd so'm	150 632	194 442
Yuqori likvid aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, %	18,2	20,8
Likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR), %	196,5	246,4
Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR), %	116,4	136,7
Tezkor likvidlik koeffitsienti, %	125,4	152,2

4-jadval ma'lumotlari bank tizimining likvidlik holati sezilarli darajada yaxshilanganligini ko'rsatadi. Xususan, likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) 196,5 foizdan 246,4 foizga oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich amaldagi minimal me'yorlardan ancha yuqori darajada shakllangan.

Likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) 196,5 foizdan 246,4 foizga oshgan bo'lib, belgilangan minimal 100 foizlik talabdan qariyb 2,5 baravar yuqori shakllangan. Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) 116,4 foizdan 136,7 foizga, tezkor likvidlik koeffitsienti esa 125,4 foizdan 152,2 foizga yetgan. Mazkur natijalar bank tizimining yuqori likvidlik zaxirasiga ega ekanligini va kredit operatsiyalarini moliyalashtirish uchun yetarli resurslar mavjudligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank sektori kredit operatsiyalarini rivojlantirish uchun yetarli kapital, likvidlik va daromadlilik salohiyatiga ega. Kredit operatsiyalari samaradorligini yanada oshirish maqsadida kredit portfeli sifatini rivojlantirish, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirish va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kredit qarorlarini qabul qilishda logistik regressiya asosidagi skoring modellari, stress-testlash mexanizmlari, kredit risklarini erta aniqlash tizimlari hamda qarz oluvchilarning resurslardan foydalanish samaradorligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish kredit operatsiyalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarida kredit operatsiyalari samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning yetarlilik darajasi baholandi hamda bank sektorining kapital, daromadlilik va likvidlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari bank sektorida kredit operatsiyalarini kengaytirish va iqtisodiyotni moliyalashtirish uchun yetarli moliyaviy salohiyat shakllanganligini ko'rsatdi. Xususan, 2025–2026-yillar davomida regulativ kapital hajmining 21 foizga o'sishi, kapital yetarliligi koeffitsientining 17,3 foizdan 18,4 foizga oshishi hamda 1-darajali kapital ulushining yuqori darajada saqlanib qolishi bank tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganligini tasdiqlaydi.

Bank sektorining daromadlilik ko'rsatkichlari tahlili natijasida sof foyda hajmining 61,2 foizga oshgani, aktivlar rentabelligi (ROA) 2,0 foizdan 2,5 foizga, kapital rentabelligi (ROE) esa 10,9 foizdan 15,0 foizga yetgani aniqlandi. Bu holat banklar tomonidan mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanilayotganligini va kredit operatsiyalarining daromad shakllantirishdagi ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalar ham bank sektorining kreditlash faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatdi. Xususan, yuqori likvid aktivlar hajmi 29,1 foizga oshgan, likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) 246,4 foizga, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) esa 136,7 foizga yetgan. Mazkur ko'rsatkichlar xalqaro me'yoriy talablardan sezilarli darajada yuqori bo'lib, banklarning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarni bajarish imkoniyatlari yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, tijorat banklarida kredit operatsiyalari samaradorligini oshirish, avvalo, barqaror resurs bazasini shakllantirish, depozitlar hajmini oshirish, kapital yetarliligini saqlab qolish hamda likvidlikni samarali boshqarish bilan chambarchas bog'liqdir. Kredit operatsiyalarining barqaror rivojlanishi banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan resurslari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga, shuningdek, kreditlash hajmlari o'sishi bilan bir qatorda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini yuqori darajada saqlashga xizmat qiladi.

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Shu bois, kelgusida tijorat banklarida kredit operatsiyalari samaradorligini oshirish maqsadida depozit bazasini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari ulushini kengaytirish, kapitalizatsiya darajasini oshirish hamda resurslarni boshqarish samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa bank sektorining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiyotning real sektorini kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. (2019). Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. Bank for International Settlements.
2. Beck, T., Levine, R., & Loayza, N. (2000). Finance and the sources of growth. *Journal of Financial Economics*, 58(1–2), 261–300. [https://doi.org/10.1016/S0304-405X\(00\)00072-6](https://doi.org/10.1016/S0304-405X(00)00072-6)
3. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. Washington, DC: World Bank.
4. International Monetary Fund. (2023). *Global Financial Stability Report: Safeguarding Financial Stability amid High Inflation and Geopolitical Risks*. Washington, DC: IMF.
5. King, R. G., & Levine, R. (1993). Finance and growth: Schumpeter might be right. *The Quarterly Journal of Economics*, 108(3), 717–737. <https://doi.org/10.2307/2118406>
6. Mishkin, F. S. (2022). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets* (13th ed.). Pearson Education.
7. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2021). *Bank Management and Financial Services* (10th ed.). McGraw-Hill Education.
8. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2021). *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach* (10th ed.). McGraw-Hill Education.
9. World Bank. (2024). *World Development Report 2024: Finance and Development*. Washington, DC: World Bank.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Bank tizimining moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. Toshkent: Markaziy bank.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Bank sektorining likvidligi, kapital yetarliligi va daromadlilik ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy statistika. Toshkent: Markaziy bank.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son Farmon: <https://lex.uz/docs/-4811025>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>